


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60811700 – *Ipakchilik va tutchilik***  
**bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

**Toshkent -2023**



**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat agrar universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		Bet
<b>1.</b>	<b><i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi .....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2	<i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
1.2.1.	<i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari.....	5
1.2.3.	<i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	6
1.2.4.	<i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	6
<b>2.</b>	<b><i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
2.1.	Umumiy kompetentsiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetentsiyalar.....	8
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	10
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	11
2.3.2	<i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	11
2.3.3	<i>60811700 – Ipakchilik va tutchilik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	11
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	13
	Kelishuv varag‘i.....	14

## **1. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi**

*60811700 – Ipakchilik va tutchilik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *60811700 – Ipakchilik va tutchilik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

##### **1.2.1. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

*60811700 – Ipakchilik va tutchilik* bakalavriyat ta'lim yo'nalishi – “Qishloq xo'jaligi” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida pilla va pilla xomashyosi maxsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati uchun xom-ashyo tayyorlash; ipakchilik, tutchilik va pilla ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish;

tut ipak qurtini jonlantirish boqish va pilla hosildorligi hamda sifatini oshirishda, kasbiy faoliyatning texnik vositalardan oqilona foydalanishni usul va zamonaviy kontseptsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi va uning tizim tashkilotlari;
- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondashuv tamoyillarini tadbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari;
- yer, suv, energetik va moddiy – texnika resurslari;
- pillachilik bilan shug'illanayotgan barcha toifadagi fermer xo'jaliklar va ularning pillalari;
- ipakchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, jixozlar, xamda mexanizmlar;
- ipak qurti urug'ini jonlantirish va qurt boqishda ishlatiladigan asbob uskunalar;
- pillalarga dastlabki ishlov berish agregatlari va ularda ishlatiladigan asbob - uskunalar;
- nasl mahsulotlari – elita, super elita va duragay ipak qurti urug'lari;
- ipak qurti va tut daraxtining zarakunandalari va kasalliklariga qarshi ishlatiladigan kimyoviy vositalar;
- tut ipak qurti ozuqa bazasini yaratishda qo'llaniladigan texnikalar uskunalari;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- texnik asbob uskunalari;
- qishloq xo'jaligi texnikalari;
- ipakchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot jarayonlari va boshqaruv tizimlari.
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish.

60811700 - *Ipakchilik va tutchilik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan

shugʻillanish huquqiga ega boʻladi. Bakalavriatning kasb taʼlimi yoʻnalishlari bundan mustasno.

### **1.2.3. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish-texnologik;
- axborot-tahliliy faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot;
- loyiha-texnologik;
- servis xizmatini koʻrsatish (agrotexnik tadbirlar boʻyicha maslahatlar berish);

### **1.2.4. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

*60811700 – Ipakchilik va tutchilik* taʼlim yoʻnalishi boʻyicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obʻektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir boʻlishi lozim:

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qoʻllash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida boʻlinmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni ragʻbatlantirish tizimini yoʻlga qoʻyish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi boʻgʻin ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati boʻyicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar echimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investiyon loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yoritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- xo'jalik yorituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yotuvlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yotuvlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

#### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **2. 60811700 – Ipakchilik va tutchilik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy kompetentsiyalar:**

#### **Bakalavr:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar

va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yoritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga etakchilik qilishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni taminlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tut ipak qurtining ozuqa bazasini rivojlantirish, mavjud yer resurslaridan oqilona foydalanish, ipak qurti ozuqa bazasini mustahkamlash uchun tut daraxining nihol va ko'chatlarini yetishtirish, ozuqa beruvchi tutzorlarni ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullari va innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tut ipak qurtining yangi zot va duragaylarini yaratish, tut ipak qurtida gen muhandisligini qo'llash, yangi zot va duragaylarni oila pitomnikida ko'paytirish, tut ipak qurtining super elita va elita avlodlarini ko'paytirish va urug'chilik korxonalariga etkazib berishda naslchilik ishlarini amalga oshirish, tut ipak qurtining elita urug'laridan duragay urug' tayyorlab, fermer xo'jaliklariga etkazib berishda sanoat urug'larini tayyorlash texnologiyasi ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tut ipak qurti urug'ini jonlantirish uchun inkubatoriyalarni tanlash va tashkil etish, inkubatoriya va qurtxonalarini dezinfektsiya qilish, ipak qurti urug'ini jonlantirishga quyish muddatlarini aniqlash va inkubatsiya qilish usullarini qo'llash,



inkubatsiyada jonlangan tut ipak qurtlarini nazorat tortish va tarqatish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tut ipak qurtini kichik va katta yoshlarida parvarishlash, qurt boqishning yangi innovatsion usullarini qo'llash, sifatli dasta tayyorlash, pillalarni dastalardan belgilangan muddatlarida terish va qattiq idishlardan foydalangan holda qabul punktlariga tashish va saqlash asosida raqobatbordosh sifatli ipak xomashyosi etishtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tirik pillalarni laboratoriyada navlarga ajratish, qabul qilish va vaqtincha saqlash, tirik pillalarga birlamchi ishlov berish agregatlarining tuzilishi, texnik ta'rifi va ishlash tartibi, shuningdek pillalarni soyada quritish va saqlash to'g'risidagi ko'nikmalariga ega bo'lish;

- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish muhiti, bozor va unga xos xatarlarni, raqobot muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazefalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarini amalga oshirish uquviga ega bo'lish;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma – ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish texnologik amaliyot) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

### 2.3.1 Kvalifikatsiya: Ipakchi agranom

#### 2.3.2. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5340	178
Tanlov fanlar	1080	36
Malakaviy amaliyotlar	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

#### 2.3.3. 60811700 – *Ipakchilik va tutchilik* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	5340	178	
1.01	O‘EYTB1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FALB1604	Falsafa	120	4	6
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O‘T O‘SQB1104	O‘zbek (rus) tili: O‘zbek tilini sohada qo‘llash	120	4	1
1.06	JMSB1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2

1.07	QXAKTB1104	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	1
1.08	OMTB1204	Oliy matematika	120	4	2
1.09	ANFKBKB1204	Analitik, fizkolloid va biokimyo	120	4	2
1.10	BO'FZB1108	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.11	MTKB1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	1
1.12	ZOOLB1106	Zoologiya	180	6	1
1.13	TIQBIOB1204	Tut ipak qurti biologiyasi	120	4	2
1.14	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.15	TIQEBTB1312	Tut ipak qurti embriolo- giyasi va biotexnologiyasi	360	12	3,4
1.16	TCHB1310	Tutchilik	300	10	3,4
1.17	IQEBAGTB1310	Ipak qurti ekologiyasi va boqish agrotexnikasi	300	10	3,4
1.18	O'SHPXB1308	O'simlikshunoslik va paxtachilik	240	8	3,4
1.19	PTDIBB1510	Pillalarni tayyorlash va dastlabki ishlov berish	300	10	5,6
1.20	TDSUB1510	Tut daraxti seleksiyasi va urug'chiligi	300	10	5,6
1.21	TDKZB1504	Tut daraxti kasalliklari va zararkunandalari	120	4	5
1.22	IQKZB1510	Ipak qurti kasalliklari va zararkunandalari	300	10	5,6
1.23	IQGSUB1712	Ipak qurti genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi	360	12	7,8
1.24	PKTEB1804	Pillachilikda klasterlarni tashkil etish	120	4	8
1.25	PCHSTB1706	Pillalarni chuvish va sifatini tekshirish	180	6	7
1.26	PRYATB1806	Pillachilikni rivojlantirishda yangi texnologiyalar	180	6	8
1.27	QXBTB1806	Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi	180	6	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
2.00		Tanlov fanlar	1080	36	3,5,6, 7,8
		<b>Jami</b>	<b>6420</b>	<b>214</b>	
	MALAMM 1222	Malakaviy amaliyotlar	660	22	2,4,6,7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		<b>Jami</b>	<b>780</b>	<b>26</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 638.2

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kredit, modul, bakalavriatning o'quv reja va o'quv dasturi, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, konsalting, ipakchilik, urug'chilik, tutchilik, ipak qurti zoti, duragaylari, pilla yetishtirish, dastlabki ishlov berish, ipak qurti kasalliklari, malaka talablari, qo'llanish sohasi, o'quv davri, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, ishlab chiqarish va malaka amaliyati, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, loyihalash, tashkiliy boshqaruv, axborot-tahliliy faoliyat, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadbirkorlik.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar istemolchilari  
**ISHLAB CHIQILGAN:**

Birinchi prorektor S.Islamov




2023 yil « 10 » 07

**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy  
ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi

Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor SH.Yakubov



2023 yil « 21 » 08

“O'zbekipaksanoat” uyushmasi  
boshqaruv raisi O.Jumayev

2023 yil « 10 » 07



Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti

Rektor K.Komilov

M.O'.

2023 yil « 19 » 07

Andijon viloyati, Marhamat tumani

“IPAK KO'CHAT KLASTER” fermer

xo'jaligi rahbari A.Musurmonqulov.



2023 yil « 20 » 07

Ipakechilik ilmiy tadqiqot instituti

Direktori Sh.Abdulazizov



2023 yil « 17 » 07

M.O'.

**Toshkent davlat agrar universiteti 60811700- Ipakchilik va tutchilik ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiqaruvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent viloyati

“10” 07 2023 yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar - Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov, Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti direktori Sh.Abdulazizov, Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektor S.Islamov birgalikda ToshDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60811700- Ipakchilik va tutchilik ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari xamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari tugrisida”gi PD-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son qarorlariga xamda oliy ta'lim soxasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan quyilgan talablar xam inobatga olingan.

Ta'lim yunalishi buyicha malaka talablari ukuv reja va fan dasturlari xamda boshka xujjatlarni yaratish uchun asos bulib xisoblanadi.Ishlab chiqilgan malaka talablari va ukuv rejani urnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Andijon qishloq xo'jaligi  
va agrotexnologiyalar instituti  
rektor  
Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti  
direktor  
Toshkent davlat agrar universiteti  
birinchi prorektor

K.Komilov

Sh.Abdulazizov

S.Islamov

